

TIL VA ADABIYOT

4/2025

TALIMI

TANGRI
ROS
KELTIRDI

AKADEMIK
ESSE qanday
yoziladi

Sen
ko'ngil tilida
biror *jumla*
ayt...

Ko'makchi "ham"
ko'magi

Shoir kim?
**Eshqobil
Shukur**

BIR QIRDA,
BIR SIRDADA...

mundarija



METODIK TAVSIYA

Umid HAMROYEV

Taqlid va modal soʻzlar. 20

SHOIR KIM?

Shodmonqul SALOM

Bir qirda, bir sirda 24

Yangiliklar 4

TAQDIMOT

Tangri rost keltirdi. 6

JADID LUGʻATI

Sulton NORMAMATOV

Qodiriy tuzgan soʻzlik. 13



ABDULLA QODIRIY

1894 -1938

TAQLID VA MODAL SO'ZLAR

Davlat ta'lim standartlariga ko'ra, ona tili ta'limining bosh maqsadi o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgarlar fikrini ang'laydigan, bir so'z bilan ayrganda, muqopp va natij madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat (2, 19). Ona tili o'qinishining asosiy maqsadi esa o'qovchilarga o'z fikrini shahiy til me'yorlariga amal qilgan holda, ham og'zaki, ham yozma shaklda aniq, mazmunli, tushunarli, savodli ifodalashni o'rgatishdir. Shu bois ona tili darslarida o'qovchilarning natijiy kompetensiyasini o'qov to'pirlirlirlari asosida rivojlantirishga o'ltirib qaralish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijiy kompetensiyalarni rivojlantirishda o'qovchilarning so'z boyligini oshirish asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Darsda grammatik bilimlar kognitiv yondashuv asosida berilsa, o'qovchilarda ularni ijodiy va ilmiy tafakkur asosida aniqli tushirish ko'nikma va malakasi rivojlanadi. Biz huni quyida 6-7 sinflarda taqild va modal so'zlar mavzusini o'rganish misolida ko'rib chiqamiz.

1. Salomova R. Kognitiv pedagogika oldi natijiy yondashuv. - Toshkent, 2023.

2. Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari tasviflash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami. - Toshkent, 2017. 14 son, 20-o'rinchi.

3. O'zbek tili ta'lim ushbi lug'at. V jild. IV jild. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

4. Makhmadov N. So'zbozlar O'zbek tili. - Toshkent, 2017.

5. Yuldasheva D. O'zbek tili o'qish metodikasi. Darslik. - Toshkent, 2020.

TAQLID SO'ZLAR

Taqild - tilning muhim ifoda vositasi bo'lib, tovush va holatga taqildni bildiradi. O'qovchilarga taqild so'zlar va ularning imkoniyat son o'zgarish uchun berilgan rasmlarning holatini ifodalovchi breklirani imlo qoidalar asosida yozish o'rtaladi. Bunda hita rasimga bir nachta taqild so'z ham mos kelishi mumkinligi o'rtaladi.

HOLAT

	chars-churs, lov-lov
	g'iyq, taraq
	taq-taq
	g'uv-g'uv, g'ir-g'ir
	g'iz-g'iz, zir-zir

QANDAY OVOZ CHIQADI?

20 TIL VA ADABIYOT TILIM 04.2025



BOLALAR ADABIYOTI

Dinara MO'MINOVA,
Gulnoza NAJMIDDINOVA
Vizual savodxonlik va rasmlar
kitoblar 34

SAVOL

Sevara ALIJONOVA
Akademik esse qanday
yoziladi? 40

ILMIY TADQIQOT

To'liqin SAYDALIYEV
Bir ko'makchi so'zning tarjima
ahamiyati 44

Mohigul ISMATOVA
Ramz tushunchasi: nazariy
masalalar va tasnif 46

ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА
И ЛИТЕРАТУРЫ 49

ПРЕПОДАВАНИЕ языка и литературы

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Дильдора Назирхонова
Методические рекомендации по применению интерактивных плакатов при обучении литературе 50

Сара Туребаева
Чтение как один из способов развития логического мышления 54

АКТУАЛЬНОЕ СЛОВО ДНЯ
Фахриддин Абдурахманов
Русский язык в Узбекистане 56

Камалия Иббеева
Образ матери в творчестве НА Некрасова 61

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Аль-Мария Бабаримовна
Методы устранения языкового барьера - первый шаг к развитию устной речи будущих учителей начальных классов 63

Озода Камолова
Гастрономическая лексика в произведении Абдуллы Кадыри «Минувшие дни» и «Скорпион из алтаря» 66

ОРИГИНАЛЬНЫЙ МЕТОД ОБУЧЕНИЯ
Роза Казимбаева
Школьный театр помогает изучать русский язык 69

К ЮБИЛЕЮ ПОЭТА

Анатолий Лиходневский
Поэт двух эпох 71

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Шайхона Музаффаровна, Анна Шереметьева
Вера как важнейший компонент сущностного способностного гнева 75

ВНЕКЛАССНОЕ МЕРОПРИЯТИЕ
Гулинора Сафарова
Значение внеклассных мероприятий в изучении русского языка в начальных классах 79



Sulton NORMAMATOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)

TUZGAN SO'ZLIK

Annotatsiya. Maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Abdulla Qodiriyning lug'atchilik faoliyati yoritilgan. Lug'at yaratishdagi o'ziga xos so'z tanlash va qo'llash uslubi, so'zlarni izohlash prinsiplari keng tahlil qilingan. Shu asosda adibning XX asr boshlarida o'zbek lug'atchiligining tadrijiy takomilidagi xizmatiga baho berilgan.

Kalit so'zlar: lug'atshunoslik, lug'at tarkibi, umumxalq tili, leksik-semantik tizim, leksikografik tamoyil, okkazional yasama, graduonimiya, kontekstual sinonimiya, ilmiy istiloh, grammatik tavsif, leksikografik belgi, turg'un konstruktsiya.

Annotation. This article is devoted to the lexicographical work of Abdulla Qodiriy, a prominent figure in Uzbek literature. It examines his individual approach to selecting and using words, as well as his principles for explaining them. The paper also evaluates his contributions to the gradual development of Uzbek lexicography in the early 20th century.

Keywords: lexicography, dictionary component, lexical-semantic system, lexicographical principles, occasional derivation, gradonymy, contextual synonymy, scientific term, grammatical description, lexicographic symbol, stable construction.

Аннотация. В статье освещается лексикографическая деятельность выдающегося деятеля узбекской литературы Абдуллы Кадыри. Подробно анализируются принципы толкования слов, особенности методики подбора и применения лексики при создании словаря. На этой основе оцениваются заслуги писателя в развитии узбекской лексикографии начала XX века.

Ключевые слова: лексикография, словарный состав, общенародный язык, лексико-семантическая система, лексикографический принцип, окказиональное словообразование, градуонимия, контекстуальная синонимия, научный термин, грамматическая характеристика, лексикографический признак, устойчивая конструкция.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Malik R. To'g'riso'z ustoz. Qodiriyning qo'msab. Yodnoma. – Toshkent, 1994.
2. Qodiriy H. Otam haqida. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1989.
3. Qodiriy A., Rahmatiy S. Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik. 2-jild, P-Ya harflari. – Toshkent-Qozon: O'zdamnashr, 1934.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2-qism. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2004.
5. Mahmudov N. Tili-mizning tilla sandig'i. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2012.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.

O'zbek lug'atchiligi tarixida XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari alohida o'rin tutadi. Bu davrda ikki va uch tilli so'zlashgichlarning yaratilishi, ayniqsa, ruscha-o'zbekcha va o'zbekcha-ruscha, shuningdek, o'zbek tilini boshqa G'arb va Sharq tillari bilan qiyoslab o'rganishga mo'ljallangan lug'atlar diqqatga sazovordir. Ular sirasida A.Qodiriy hamda S.Rahmatiy yaratgan "Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik" (2-jild, 34 ming so'z, Toshkent-Qozon, 1934) lug'ati tarkibi, so'z tanlash prinsiplari, ma'no, uslub, izohlarning boyligi va grammatik tavsiflari bilan ajralib turadi.

O'zbek zamonaviy nasrining darg'asi Abdulla Qodiriy tilshunoslik, xususan, lug'atchilik (leksikografiya) bilan ham jiddiy shug'ullangan. Shogirdlaridan Malik Rahmon "To'g'ri-so'z ustoz" maqolasida quyidagi fikrlarni aytadi: "...O'sha davrda (1930-yillar) ishlarimizga O'zbekiston Fanlar komitetining boshlig'i Otajon Hoshimov katta yordam qilgan edi. Komitetda til-imlo, atamalar, lug'atlar tuzuvchilar bo'limlari tashkil etilgan edi. Abdulla Qodiriy, Sanjar Siddiq va Nabi Alimuhamedov lug'atlar tuzishda juda katta xizmat qildi. O'zbek tilining besh tomlik ruscha-o'zbekcha lug'ati shular ishtirokida dunyoga kelgan edi. Abdulla Qodiriyning atamalar sohasidagi katta xizmatlarini e'tiborga olib, shu sohaga – termin-komga bosh maslahatchi (konsultant) etib tayinlashdi" [1: 15].

Abdulla Qodiriyning lug'atchilik bilan jiddiy shug'ullanganligi va bu borada ancha tajribaga egaligini Habibulla Qodiriyning quyidagi fikrlaridan ham to'la anglash mumkin: "Yodimda, shu shiypontagiga g'isht terilayotganida Yudaxin familiyali bir rus kishi dadamni so'rab keldi va rus bo'lishiga qa-

ramay, hamma usta-mardikorlar bilan "horma, bor bo'l" qilib o'zbek tilida so'rashib chiqdi. Yudaxin sharqshunos, shu yillarda birinchi o'zbekcha-ruscha lug'at tuzar va shu munosabat bilan Qodiriydan ba'zi bir maslahatlar olgani biznikiga kelgan ekan... U portfelidan bir dasta qog'oz chiqarib dadamga ko'rsatgan edi. Qog'ozlarda qator qilib arab alifbosida o'zbek-

...ushbu frazemalar Abdulla Qodiriy xalq tilining lug'aviy boyliklarini yaxshi bilgani, ulardan lug'at yaratishda o'rinli foydalanganini ko'rsatadi.

cha va ruscha so'zlar yozilgan edi. Yudaxinning 15 000 so'zli bu lug'ati 1927-yili bosilib chiqdi" [2: 121].

Yirik tilshunos va shevashunos Yundaxinning o'z vaqtida Abdulla Qodiriydan maslahat olishi bejiz emas, albatta. Bu holat ulug' adibning lug'at tuzish bo'yicha ham yetarli tajribaga ega bo'lganidan dalolat beradi.

H a b i b u l l a Qodiriy "Otam haqida" kitobida Abdulla Qodiriyning "Ruscha-o'zbekcha to'la so'zli lug'at"ning 11 000 so'zdan iborat "P" harfini tuzganini alohida qayd etadi: "1933-yilning kech kuzagi edi, shekilli, dadam bir-iki oy o'tirib, "Ruscha-o'zbekcha to'la so'zli lug'at"ning "P" harfini tuzdilar. Yodimda, u kishi sandalda o'tirib, atroflariga o'nlab rus, o'zbek, arab, turk lug'atlarini yoyib qo'yib, alfavit bo'yicha kitoblardan yangi so'zlar izlar va topib yozgach, lug'atlardan unga yana ma'no qidirar edilar... 34 ming so'zdan iborat lug'at 1934-yil yozida lotin alifbosida bosilib chiqdi" [2: 159].

Adib asarlarining tili bir qancha tadqiqotlarda lingvistik tadqiq manbayi bo'lgan. Biroq Qodiriy hammualliflik qilgan "Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik"ning leksikografik xususiyatlari hamda yozuvchining lug'atchilik faoliyati to'liq yoritilmagan. Shu bois biz adibning lug'atchilik sohasida-

gi faoliyatini o'zi yaratgan so'zlikning leksikografik xususiyatlari misolida tahlil qilishni lozim topdik. Mazkur tahlillarimiz Abdulla Qodiriydek so'z san'atkori ijodining lug'atshunos sifatidagi yana bir ochilmagan qirrasini ko'rsatishga xizmat qilsa, ajab emas.

Ma'lumki, lug'atlar so'z yoki atama ma'nolarining yoritilishiga ko'ra izohli va izohsiz turlarga bo'linadi. So'z yoki terminlarning imlosini, tushunchalarning ruscha-o'zbekcha yoki o'zbekcha-ruscha nomlarini berish bilan cheklangan lug'atlar izohsiz, ularning ma'nolariga izoh beradiganlari esa izohli lug'atlar deyiladi. Bu jihatdan ulug' adib hammualliflik qilgan "Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik" (2-jild, 34 ming so'z, Toshkent-Qozon, 1934) izohsiz lug'atlar sirasiga kiradi. Lekin, shunga qaramay, "P" harfi bo'yicha adib tomonidan ishlangan ruscha so'zlarning o'zbekcha tarjimasida ularning ma'nolarini to'laroq ochib berish maqsadida turli leksikografik izoh usullaridan foydalanilganini ko'rish mumkin. Biz bunday o'ziga xos izoh usullarini quyidagicha tasniflashni lozim topdik:



1. SINONIMLAR YORDAMIDA IZOHLASH

Soʻz maʼnolarining bunday izohlanishi – leksikografiyada juda keng tarqalgan usullardan biri. Muallif lugʻatda ruscha soʻzlarning tarjimasini berar ekan, baʼzi leksemalarning maʼnodosh shakllarini ham keltirib oʻtgan:

памятовать – eslamak, yodlamak, xotirlamak, eska tushurmak [3: 81];
парша – kal, toz, yagʻir [3: 32];
пассажир – yoʻlchi, yoʻlovchi, safarchi [3: 34];
патера – idish, jom, qadah [3: 36];
пеняние – oʻpkalash, arazlash, kinalash [3: 48];
перебаловать – juda ham erkalab yubormoq, taltaytirmoq [3: 52];
перебалтывать – ortiqcha ezmalik qilmoq, vaysamoq [3: 52];
перевозчик – tashuvchi, yukchi, kirakash [3: 58];
перегреть – qaytadan qizdirmoq, jilitmoq [3: 62];
перегулять – sayoqlik qilmoq, sayoq yurmak, daydimak [3: 63] va hokazo.

Lugʻatda keltirilgan sinonimlar maʼnosining turli-tumanligi bilan bir-biridan farqlanadi. Chunki muallif ularning dialektal, tarixiy, arxaiik variantlaridan foydalangan. Yuqorida keltirilgan sinonimik qatorlardagi **toz, yagʻir, jom, qadah, kinalash** kabi soʻzlar hozirgi adabiy tilimizda kam qoʻllaniladigan lugʻaviy qatlamga mansub leksemalar boʻlsa, **taltaytirmoq, vaysamoq, yukchi, jilitmoq, daydimak** kabi soʻzlar nutqning u yoki bu turiga xoslanishi bilan farqlanuvchi maʼnodosh leksik birliklardir.

Lugʻatda baʼzi hollarda ifoda semalari darajalangan sinonimik qatorlar ham keltirilgan:

Bu misollarda predmet yoki tushuncha, belgi-xususiyat, harakat-holat leksemalari ifodalagan maʼnolarining graduumonimik belgilarini kuza-tish mumkin.

первостепенный – kerakli, birinchi darajali, eng muhim [3: 51];
перебраниваться – deyishmoq, soʻkishmoq, janjallashmoq [3: 54];
переваренный – pishgan, pishib ketgan, oʻtapishgan [3: 54];
переветник – chaqimchi, fitnachi, xiyonatchi [3: 56];
переговор – soʻz, gap, muzokara [3: 61];
перекалывать – ignalamak, sanchmak, nayzalamak, teshmak [3: 70].

Lugʻatda soʻzlar tarjimasini sinonimlar yordamida berilar ekan, ayrim oʻrinlarda til birligi sifatida sinonim boʻlmagan leksemalarning maʼlum kontekst doirasida (yaʼni, nutq ichida) bir sinonimik qatorda keltirilganiga guvoh boʻlamiz:

промах – xato, yanglish, chatoq [3: 432];
пропитание – yedirish, oziq-ovqat, nafaqa [3: 440];
пространство – boʻshliq, kenglik, oraliq, makon [3: 452].

Misollardagi **chatoq, nafaqa, makon** leksemalari sinonimik qatordagi soʻzlarga kontekst doirasidagina sinonim boʻlib, kontekstdan tashqarida ularning

maʼnolari oʻzaro teng emas. Muallif ruscha soʻzlarning oʻzbek tilidagi muqobillarini nutqiy vaziyatda kengroq ochib berish maqsadida bu soʻzlarni bir sinonimik qatorda uyushtirgan.

Sinonimik qatordagi leksemalarning geneologik tabiatini kuzatar ekanmiz, tarjima-dagi bir sinonimik qatorda sof turkiycha soʻzlar bilan birga ayrim oʻzlashma soʻzlar ham keltirilganiga guvoh boʻlamiz:

панголин – kaltakesak, kaltakalos [3: 12];
повинность – majburiyat, begar [3: 164];
погрешение – gunoh, xato, sahv [3: 173];
подовик – oʻchoq gʻishti, kirpichi [3: 201];
походка – yurish, raftan [3: 318];
посланник – elchi, vakil, safir [3: 301].

Misollardagi **kaltakalos, begar, kirpichi, raftan, safir, sahv** kabi soʻzlar arabcha, forscha hamda ruscha oʻzlashmalardir. Bundan koʻrinadiki, oʻsha davrda bu leksemalar turkiycha soʻzlar bilan yondosh ravishda isteʼmolda boʻlgan.

Lugʻatda bir soʻzning ikki, uch, toʻrt, baʼzan beshtagacha sinonimi keltirilgan. Natijada lugʻatning soʻz boyligi sezilarli darajada oshgan.

2. SO'Z MA'NOLARINI ZIDLASH ASOSIDA IZOHLASH

Lug'atda ruscha so'zlar tarjimasida ma'noni kengroq va aniqroq ochish, o'quvchiga qisqa va lo'nda tushuntirish berish maqsadida ikki o'rinda so'z ma'nolari zidlash orqali izohlangan:

положительный – musbat, manfiyning aksi [3: 255];
проза – nasr, o'lchaksiz so'z, nazmning teskarisi [3: 421].

Bu usul o'quvchiga so'zning denotativ ma'nosi-ni yanada to'liq tushunishga yordam beradi.

3. IBORALAR YORDAMIDA IZOHLASH

Ma'lumki, frazemalar (iboralar)ning semantik tarkibida frazeologik ma'nodan tashqari, uslubiy bo'yoq ham mavjud. Undagi salbiy yoki ijobiy baho semalari odatda frazemalar-ning mazmuniga ko'ra bo'rtib turadi. Bu omil iboralardan nutqiy ta'sirchanlikni ta'minlovchi uslubiy vosita sifatida foydalanish imkonini beradi. Bizning kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, Abdulla Qodiriy ham tarjimadagi so'zlar izohini berishda bu imkoniyatdan unumli foydalangan:

повлиняться – kek kaymoq, "kattalik qilmoq" [3: 1];
перекоробить – egmak, sindirmoq, "ko'nglini og'ritmoq" [3: 74];
перекрошивать – uvoqlamoq, uvalamoq, mayda-mayda qilmoq, "tit-pit qilmoq" [3: 75];
перемогание – ustun keluv, baland keluv, "qo'l uzun bo'luv" [3: 83];
пленять – asir qilmoq, maftun etmak, "ko'nglini olmoq" [3: 145];
повеселиться – xursandchilik qilmoq, "ko'ngil ochmoq" [3: 162];
податливость – "qo'li bo'shlik", "qo'li ochiqlik" [3: 176];
подкапываться – dushmanlik qilmoq, "tirnoq tagidan ayb izlash" [3: 190];
полоумие – esipastlik, "bir qaynovi ichidalik" [3: 226];
последыш – kenja, so'nggi bola, "to'rva qoqdi" [3: 316];
пофанфаронить – maqtanmoq, "aravani quruq olib qochish" [3: 316];
прислушивать – tinglamoq, "quloq osmoq" [3: 388].

Yuqorida keltirilgan misollar-dagi *kattalik qilmoq, ko'nglini og'ritmoq, tit-pit qilmoq, qo'l uzun bo'luv, ko'nglini olmoq, ko'ngil ochmoq, qo'li bo'shlik, qo'li ochiqlik, tirnoq tagidan ayb izlash, bir qaynovi ichidalik, to'rva qoqdi, aravani quruq olib qochish, quloq osmoq* kabi birliklar xalq tilida keng iste'molda bo'lib kelgan iboralardir. Muallif tarjimadagi so'zning leksik ma'nosini aniqroq, to'liqroq ko'rsatish va nutqiy xoslanishdagi ko'rinishlaridan o'quvchini

xabardor qilish maqsadida uslubiy bo'yoqdor ko'chma ma'noli turg'un konstruksiyalar, ya'ni frazemalarni leksemaga sinonim sifatida keltirgan.

Ayniqsa, ushbu frazeologik birliklar so'zlashuv nutqining lug'aviy normasi ekani lug'at tilini xalq tiliga yaqinlashtirgan va uni barcha uchun tushunarli qilgan. Bundan tashqari, ushbu frazemalar Abdulla Qodiriy xalq tilining lug'aviy boyliklarini yaxshi bilgani, ulardan lug'at yaratishda o'rinli foydalaniganini ko'rsatadi.

Yirik tilshunos va shevashunos Yundaxinning Abdulla Qodiriydan maslahat olishi bejiz emas, albatta. Bu holat ulug' adibning lug'at tuzish bo'yicha ham yetarli tajribaga ega bo'lganidan dalolat beradi.

4. KO'CHMA MA'NOLI SO'ZLAR YORDAMIDA IZOHLASH

Abdulla Qodiriy lug'atda ruscha so'zlar tarjimasini izohlashda ko'chma ma'nodagi umumiste'mol so'zlar, shuningdek, mumtoz adabiyot tilida faol ishlatilgan an'anaviy poetik so'zlardan mahorat bilan foydalangan va o'ziga xos izohlash usulini qo'llagan:

пение – ashula, qo'shiq, ashula qiluv, sayrov [3: 46];
пеня – o'pka, gina [3: 48];
перебиваться – zo'rg'a kun ko'rmoq, qiyinchilik bilan tirikchilik qilmoq [3: 53];
переглядка – qarashuv, ko'zlashuv [3: 60];
пережигание – kuydiruv, yondiruv, o'rtov [3: 67];
перечёркиваться – chizilmoq, qoralamoq, qalam tortmoq [3: 111];
пикаро – yaramas, makkor, tulki [3: 127];
пища – ovqat, osh, tomoq, oziq [3: 138];
пламя – o't, olov, alanga, yolqin [3: 140];
поречье – daryo qirg'og'i, anhor labi [3: 291];
просвещать – yorutmoq, jaholatdan qutqarmoq, maorif bermak [3: 446].

Misollardagi **sayrov, o'pka, zo'rg'a kun ko'rmoq, ko'zlashuv, o'rtov, qoralamoq, qalam tortmoq, tulki, tomoq, yolqin, anhor labi, yorutmoq** kabi so'z va birikmalar turli usullar bilan hosil bo'lgan ko'chma ma'nolardir. Muallif ruscha so'zlarning o'zbekcha muqobillarini o'z ma'nosidagi leksemalar qatorida ko'chma ma'nodagi so'zlar yordamida ham izohlashi o'quvchini so'zlashuv va poetik nutqda shakllangan xilma-xil ko'chma, ramziy

ma'nolar bilan ham tanishtirishni maqsad qilgan, deyish mumkin. Chunki lug'atlarning asosiy vazifalaridan biri jamiyatda madaniy-oqartuv rolini bajarish bo'lib, ularda muayyan voqea-hodisa haqida o'quvchiga ma'lumot berish, uni o'z ona tilidagi va o'zga tillardagi so'zlar, ularning turli ma'no o'zgarishlari bilan tanishtirish, tilning lug'at tarkibini takomillashtirish, me'yorlashtirish va tartibga solish hamdir.

5. LEKSIKOGRAFIK ISHORALAR HAMDA BELGILAR YORDAMIDA IZOHLASH

So'zning ma'nosi va tuzilishini ochishda leksikografik belgilar hamda ishoralaridan foydalaniladi. Bu usul leksikografiyada kam qo'llaniladi, undan foydalanish ko'proq lug'at tuzuvchining mahoratiga bog'liq. "Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik"da Abdulla Qodiriyning bu boradagi mahorati ham namoyon bo'ladi. Bu usul, asosan, ushbu holatlarda ko'zga tashlanadi:

A

variantdosh so'zlar izohlanayotganda "qarang" so'zi ishlatilgan:

перелить – q. переливать [3: 78];
подопресть – q. подопревать [3: 202];
последок – q. последки [3: 302];

B

fan va texnikaga oid ilmiy terminlar tarjimasi berilganda qavs ichida fanning nomi qisqartma tarzida ifoda etilgan:

переложная – sistema, dam berish usuli (agr.);
перепончатопалый – parda oyoqli (zool.) [3: 91];
подмышка – qo'ltiq (anat.) [3: 199].

Ayniqsa, ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolarini ochishda bu usul juda qo'l kelgan:

переложение – joyini o'zgartiruv (mat.) // басталов (mus.),
переливание – idishdan-idishka quyuv // qon o'tkazuv (med.) [3: 78];

D

lug'atda turli ijtimoiy sohaga oid so'zlar va terminlarning tarjimasi berilar ekan, tarjimini asosli, to'laqonli aks ettirish maqsadida ayrim o'rinlarda qo'shimcha izoh sifatida matematik formulalar, belgi-ishoralardan ham unumli foydalanilgan. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchining tarjima-dagi so'z ma'nosini oson va tez tushunishini ta'minlagan:

пара – pul, turk mayda aqchasi – 1/5 tiyinga baravar [3: 19];
параган – mahak toshi, italiya qora marmari, bir xil yirik matbaa harfi (18–20 punkt) [3: 20];
параграф – xona, § belgisi [3: 20];
пасма – басма – har birisi bir metr uzunlikdagi 100 ta ipdan iborat kalava (10 livit ip) [3: 35];
полтара – bir yarim, 1 1/2 [3: 257].

6. TARJIMADA RUSCHA SO'ZLARNI PARALLEL KELITIRISH ORQALI IZOHLASH

Lug'at "Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik" nomi ostida nashr etilgan bo'lsa-da, ba'zi ruscha so'zlar o'zbekcha tarjimasini bilan bir qatorda ruscha so'zning aynan takrori yoki o'zbekcha so'z bilan aralash holda qo'llanilgan o'rinlar ham uchraydi:

печатник – chopchi, matbaachi, pechatnik [3: 124];
попутчик – yo'ldosh, safardosh, poputchik [3: 284];
портсигар – popiros qutisi, portsigar [3: 295];
приказчик – magazin xizmatchisi, prikazchik [3: 364];
полуоборот – yarim aylanma, yarim oborot [3: 258];
полупроцентный – yarim foizli, yarim protsentli [3: 259];
поужинать – kechlik yemak, ujin qilmoq [3: 316];
потанцевать – tans qilmoq, bir oz o'yinga tushmoq [3: 310].

XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o'zbek adabiy tili o'ziga xos me'yoriy murakkabliklari bilan ko'zga tashlanadi. Bu davrdagi o'zbek milliy adabiy tiliga usmonli turk, tatar, ozarboyjon tillari qatorida rus tilining ham sezilarli ta'siri kuzatiladi. Yuqoridagi holat isbotlaydiki, turli nutq uslublarida o'zbekcha so'zlar qatorida ularning ruscha

muqobillari ham yondosh qo'llangan. Bunga o'sha davrdagi mafkuraning ta'siri birinchi sabab bo'lsa, turli ijtimoiy tabaqa vakillari orasida so'zning ruscha shakli o'zbekchasiga nisbatan tushunarliroq bo'lganini holatning ikkinchi sababi sifatida baholash mumkin.

Abdulla Qodiriy arabcha, ruscha istilohlar o'rniga o'zbek tilida ilmiy terminlar yaratish mumkinligini isbotlagan.



7. OKKAZIONAL YASALMALAR ORQALI IZOHLASH

Kuzatishlarimiz lug'atdagi ruscha so'zlar tarjimasida Abdulla Qodiriy tomonidan yaratilgan bir qator xarakterli okkazional so'zlar mavjudligini va muallif tarjimadagi so'zlar izohini berishda ulardan ham samarali foydalanishini ko'rsatdi.

Ma'lumki, okkazional yasalmalar leksemaning tildagi ko'rinishi va ma'nosiga xos bo'lmagan, muayyan shaxsning (muallifning) nutqiy vaziyatdan kelib chiqib so'zni yangicha shaklda qo'llashi va shu leksema mazmuniga yangicha tus berishi natijasida yuzaga keltirilgan so'z shakli hamda uning sun'iy ma'nosidir [4: 17]. Muallif ayrim ruscha so'zlar tarjimasida bunday yasalmalarni ko'plab qo'llagan:

пакостник – ifloschi, buzuqi [3: 4];
портъе – darvozabon, qopqachi [3: 295];
перевёрка – yo'qlama, borlama [3: 55];
подлежащее – ega, muftada [3: 194].

паломничество – ziyoratchilik, hajchilik [3: 8];
памятливость – yodlilik, esda tutuvchanlik [3: 10];
перегодовать – yillamoq, yil kechirmak [3: 61];
пережитие – uzoq yashov, yashamollik [3: 68];
подённый – kunlikchi, mardikor [3: 187];
подставка – xarrak, ko'targi, taglik [3: 212];
покров – qopqoq, yopqi, o'rama [3: 242];
приправа – dorivor ta'mlagich [3: 383].

Keltirilgan misollardagi *hajchilik, yodlilik, yillamoq, yashamollik, kunlikchi, ko'targi, yopqi, ta'mlagich* kabi leksemaning mavjud lug'atlarda uchramasligi muallifning ijodiy mahsuli ekanidan, ularning okkazional yasalmaligidan dalolat beradi. Demak, adib lug'at tuzishda tilda mavjud so'zlardangina foydalanmagan, balki ba'zi hollarda aytmoqchi bo'lgan fikrni, ya'ni tarjimadagi so'z ifodalagan tushunchani aniqroq, ta'sirchanroq ifodlash maqsadida shunga mos so'zlarni topishga, lozim o'rinlarda ularni yasashga, original tarzda qo'llashga intilgan. Bu hol Abdulla Qodiriyning so'zshunos sifatidagi mahoratidan, til boyligiga ijodiy yondashganidan dalolat beradi. Lug'atdagi yana ayrim original qo'llanishlarga e'tiborni qarataylik:

O'zbek tilida -chi affiksi yordamida shaxs oti yasaliş modeli mavjud, biroq misollardagi belgi-xususiyat semasiga ega bo'lgan *"iflos"* leksemasiga, narsa-predmet ma'nosini ifodalovchi *"qopqa"* so'ziga -chi affiksini qo'shish bilan

yangi leksik ma'noli yasalmalarni yuzaga keltirish holati kuzatilmaydi. Xuddi shuningdek, tilimizda asosi modal so'z hisoblangan *"yo'qlama"* so'zi mavjud, lekin lug'atda unga sinonim sifatida keltirilgan *"borlama"* so'zi mavjud emas.

Lingvistik termin hisoblangan “*ega*” soʻziga sinonim sifatida tenglashtirilgan “*mubtada*” ham muallifning ijodiy mahsulidir. Garchi bu terminlar keyinchalik oʻzbek tilida norma sifatida qabul qilinmagan boʻlsa-da, ularning yaratilishi Abdulla Qodiriyning XX asr boshlarida oʻzbek tilini ilmiy-adabiy darajaga koʻtarishni maqsad qilgan Fitrat, Elbek, Ashurali Zohiriy, Munavvar qori, Miyon Buzruk kabi maʼrifatparvarlar qatorida arabcha, ruscha ilmiy istilohlar oʻrniga oʻzbek tilida ilmiy terminlar yaratish mumkinligini oʻz faoliyatida isbotlaganining amaliy tasdigʻidir.

Tilshunos olim Nizomiddin Mahmudov oʻzbek lugʻatchiligi tarixi, lugʻat yaratish tamoyillari va lugʻatchilikning mustaqilliklarga boʻlgan davrdagi tadrijiy takomiliga munosabat bildirar ekan, quyidagi fikrlarni alohida taʼkidlaydi: “...Oʻtgan asrda ham juda koʻplab turli xildagi lugʻatlar yaratildi. Bu lugʻatlarda soʻzlarning sodda va sifatli leksikografik tavsifiga erishilganiga qaramasdan, mustaqillik arafalarida va mustaqillikning ilk yillarida bunday lugʻatlar anchayin eʼtirozlarga sabab boʻldi, jiddiy tanqid ostiga olindi. Bunda lugʻatlarda “ruscha-baynalmilal” soʻzlarning behad koʻpligi, unda

oʻzbek tili boyligining yetarli darajada aks etmaganiga asosiy eʼtibor qaratildi. Chindan ham, bu eʼtirozlarda haqiqat bor edi. Milliy mentalitetimiz va ming yillik madaniyatimiz-u maʼnaviyatimizning magʻzi-mohiyatini tayin etadigan juda koʻp tushunchalarni ifodalaydigan, masalan, ajr, aziz-avliyo, vorisiylik, maʼnaviyat, millatparvar, qadriyat kabi bir qancha soʻzlarga mazkur lugʻatlarda joy topilmagan edi... [5: 27].

Abdulla Qodiriy yaratgan lugʻatning leksikografik qimmatini, unda berilgan soʻzlikning mazmun-mohiyatini yuqoridagi fikr nuqtayi nazaridan baholaydigan boʻlsak, lugʻatning yana bir eʼtiborli tomoni koʻzga tashlanadi. Murakkab ijtimoiy-tarixiy sharoit, mafkuraviy tazyiq hukmronligi ostida ijod qilganiga qaramay, muallifning lugʻatda ayrim soʻzlarga bergan izohlarida millatparvarlik, vatanparvarlik, milliy qadriyat, milliy maʼnaviyat, milliy oʻzlikni anglash, jaholat iskanjasi-dan qutilish masalalariga alohida urgʻu bergani sezilib turadi. Masalan:

Misollarda keltirilgan *kindik qoni toʻkilgan yer, xalq tili, el tili, millat tili, avom shevasi, jaholatdan qutqarmoq, maorif bermak, odamning maʼnaviy tarafi* kabi istilohlar ulugʻ adibning qaltis bir zamonda koʻrsatgan maʼnaviy jasoratidir.

пепелище – vatan, tugʻilgan yer, kindik qoni toʻkilgan yer [3: 48];
простонародье – el, xalq, millat, jamoat, avom [3: 451];
просторечие – xalq tili, el tili, millat tili, avom shevasi [3: 451];
просвещать – yoritmoq, jaholatdan qutqarmoq, maorif bermak [3: 446];
психизм, психика – ruhiyat, kishining ichki holati, odamning maʼnaviy tarafi [3: 473].

Yuqoridagi tahlillarimiz asosida umumiy tavsif beradigan boʻlsak, lugʻatga oʻsha davr umumisteʼmoldagi soʻzlar bilan birga qoʻllanilishi chegaralangan soʻzlar ham kiritilgan. Buning uchun ilmiy asoslangan aniq tamoyillar belgilab olingan va shunga suyanganda ishutilgan. Masalan, baʼzi terminlarning (*напотум* – *quloq yoni bezlari*ning *shishuvi* (*meditsina*), *перга* – *gulchang* (*botanika*), *переклѹчателъ* – *ayirgʻich* (*fizika*), *плектрон* – *tayoqcha* (*musiq*), *ayrim kasb-hunarga oid soʻzlarning* (*arra, randa, iskana, charx, egov*), *soʻzlashuv nutqiga xos bir qator soʻzlarning* (*насти* – *roda; пельмени* – *chuchvara, barak; первобытность* – *eng burungʻi; нарастѣскасться* – *yorilmoq, chatnamoq; nanaxa* – *papaq, telpak*) kiritilishi lugʻatning leksik fondini boyitgan. Tarixiy va eskirgan soʻzlarning muayyan qismi ham ruscha soʻzning oʻzbekcha muqobili sifatida berilgan. Shuningdek, Abdulla Qodiriyning oʻzi yaratgan koʻpgina yangi yasalmalar tilimiz soʻz xazinasini boyitishga xizmat qilgan.

OʻZR FA Til va adabiyot instituti olimlari tuzgan yangi 5 jildli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”ning soʻzboshi qismida XX asr boshlarida yaratilgan Y.Polivanovning “Qisqacha ruscha-oʻzbekcha lugʻati” (Toshkent-Moskva, 1926), A.Zohiriyning 2 jildli “Ruscha-oʻzbekcha mukammal lugʻati” (Toshkent, 1927), K.Yudaxinning “Qisqacha oʻzbekcha-ruscha lugʻati” (Toshkent, 1927) hamda U.Ahmadjonov va B.Ilyozovlarning “Oʻzbekcha-ruscha lugʻati” (Toshkent, 1931) qatorida A.Qodiriy va S.Rahmatiy yaratgan mazkur “Ruscha-oʻzbekcha toʻla soʻzlik” (Toshkent-Qozon, 1934)

lugʻatining XX asr boshlari va undan keyingi davr oʻzbek lugʻatchiligi tadrijiy taraqqiyotidagi oʻrni va ahamiyati xususida bildirilgan quyidagi fikr ham diqqatga molikdir: “...ikki tilli lugʻatlar, xususan, “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat” ustida olib borilgan barcha ishlar, maʼlum maʼnoda, izohli lugʻatni yaratish uchun tayyorgarlik boʻldi, unga zamin hozirladi. Bu ishlar davomida oʻzbek tilining izohli lugʻati va oʻzbekcha-ruscha lugʻatlarning tuzilishi uchun umumiy boʻlgan koʻpgina masalalar, jumladan, lugʻatda bosh soʻzlarning shakli, soʻz tanlash prinsiplari, soʻzlarning maʼnoviy, uslubiy va grammatik tavsiflari, leksikografik belgilar tizimi, boshqa masalalar amaliy ravishda hal etildi [6: 7].

Yuqorida nomlari keltirilgan lugʻatlar nafaqat ikki tili tarjima lugʻatlari, balki etimologik, sinonimik, omonimik, antonimik, morfemik hamda frazeologik lugʻatlar yaratish prinsiplarini ham aks ettirgan. Shuningdek, ular XX asr boshlaridagi oʻzbek leksikografiyasidagi tajribalarini umumlashtirib, hozirgi zamon oʻzbek tilining leksik-semantik tizimi hamda XX asrda shakllangan meʼyorlarni ilk bor keng tavsiya etgan. Ushbu ishlar oʻzbek tilining birinchi izohli lugʻatini tuzish uchun mustahkam asos boʻlganini ham eʼtirof etish lozim.

Aytish mumkinki, bular qatorida ulugʻ adibning mazkur lugʻati ham XX asr boshlaridagi oʻzbek tilshunosligi, xususan, lugʻatchiligidagi oʻziga xos taraqqiyot bosqichini belgilovchi, tilimizning oʻsha davrdagi leksik fondini jamlagan hamda lugʻatchilik tamoyillarini bir pogʻona yuqoriga koʻtargan muhim lingvistik manbadir.